



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish...	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	<b>134</b>
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	<b>138</b>
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	<b>142</b>
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	<b>146</b>
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	<b>151</b>
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	<b>157</b>
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	<b>160</b>
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	<b>164</b>
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	<b>168</b>
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	<b>173</b>
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	<b>178</b>
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	<b>181</b>
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	<b>186</b>
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	<b>190</b>
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	<b>194</b>
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	<b>198</b>
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	<b>202</b>
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	<b>206</b>
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	<b>209</b>
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	<b>213</b>
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	<b>222</b>
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>227</b>
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	<b>230</b>
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	<b>235</b>
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	<b>239</b>
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	<b>243</b>
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	<b>247</b>
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	<b>251</b>
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	<b>254</b>
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	<b>257</b>

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA IQTISODIY TIZIMLARNI  
BOSHQARISH NAZARIYALARINING TRANSFORMATSIYASI HAMDA UNING  
EVOLYUTSIYASI

ТРАНСФОРМАЦИЯ ТЕОРИЙ УПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ СИСТЕМАМИ  
В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ И ЕГО ЭВОЛЮЦИИ

TRANSFORMATION OF ECONOMIC SYSTEM MANAGEMENT THEORIES IN THE  
CONTEXT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT AND ITS EVOLUTION

**Мамажонова Нодирaxon Alisher qizi**

Andijon davlat texnika instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi yoritib o‘tilgan. Bunda asosan, innovatsiyani elementlari, innovatsiya va bilimga asoslangan model, qurilish korxonasi qurilish iqtisodiy o‘shishga innovatsiyalar orqali ta’sir etish yo‘llari, boshqaruv nazariyasining asosiy bosqichlar, boshqaruv nazariyalarining asosiy yo‘nalishlari, innovatsiyaga yo‘naltirilgan boshqaruv, innovatsion boshqaruvning tarkibiy qismlari, Innovatsion loyihalarni samarali boshqarishga dinamik va noaniq bozor muhitida “Agile boshqaruv modeli”, “Lean innovatsiya modeli” va boshqalar o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar.** iqtisodiy tizimlarni boshqarish, transformatsiya, Agile boshqaruv modeli, Lean innovatsiya modeli, “Triple Helix” (davlat–biznes–ilm–fan) modeli, innovatsiyaga yo‘naltirilgan boshqaruv, dinamik va noaniq bozor

В статье рассматривается трансформация теорий управления экономическими системами в контексте инновационного развития и его эволюции. В этой связи исследуются элементы инноваций, инновационно-ориентированная модель, способы влияния инноваций на экономический рост строительного предприятия, основные этапы теории управления, основные направления теорий управления, инновационно-ориентированное управление, компоненты инновационного управления, эффективное управление инновационными проектами в динамичной и неопределенной рыночной среде, «гибкая модель управления», «бережливая инновационная модель» и др.

**Ключевые слова:** управление экономическими системами, трансформация, гибкая модель управления, бережливая инновационная модель, модель «Тройная спираль» (государство-бизнес-наука), инновационно-ориентированное управление, динамичный и неопределенный рынок.

This article examines the transformation of economic system management theories in the context of innovative development and its evolution. In this regard, the following topics are explored: elements of innovation, an innovation-oriented model, the ways innovation influences the economic growth of a construction company, the main stages of management theory, the main directions of management theories, innovation-oriented management, the components of innovation management, the effective management of innovation projects in a dynamic and uncertain market environment, the "flexible management model," the "lean innovation model," and others.

**Keywords:** economic system management, transformation, flexible management model, lean innovation model, Triple Helix model (government-business-science), innovation-oriented management, dynamic and uncertain market.

Innovatsiya – bu iqtisodiy faoliyatda yangi g‘oya, texnologiya, mahsulot yoki xizmatni yaratish va joriy etish jarayonidir. “Innovatsiya faqat ilmiy-texnik progress emas, balki uning iqtisodiy va ijtimoiy samarasiga erishish bilan ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek iqtisodiy nazariy jihatdan innovatsiya quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi. Bular:

Texnologik innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish usullari, mashinalar, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar. Mahsulot innovatsiyalari bozorda yangi turdagi mahsulotlar yoki xizmatlar paydo bo‘lishi. Tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalari boshqaruv jarayonlari, tashkilot strukturasi va biznes-modellarini takomillashtirish bilan bog‘liq hisoblanadi” [7, -pp.36]. Bu innovatsiya elementlarining nazariy asosida innovatsiyaning asosiy maqsadi, ya‘ni resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish yotadi.

“Innovatsion rivojlanish–bu iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda innovatsiyalarning uzluksiz joriy etilishi va ular orqali iqtisodiy samaradorlikning uzluksiz oshirilishi jarayonidir. Shu o‘rinda innovatsion rivojlanishning asosiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bular o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi: o‘zgarishchalik–bozor talablari va texnologiyalarga tez moslashishi; barqarorlik–innovatsiya jarayonlari uzluksiz va tizimli amalga oshirilishi; samaradorlik–iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi; strategik yo‘nalish–ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarni bir vaqtda ta‘minlaydi” [6, -pp.65].

Iqtisodiy jihatdan innovatsion rivojlanish — bu yangi mahsulotlar va xizmatlar orqali qiymat yaratish va shu orqali qurilish korxonalari, qurilish tarmoqlar va mamlakatni qurilish iqtisodiyotini o‘shirishida uning asosiy drayveri sohalari hisoblanadi.

“Innovatsion iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatning bevosita innovatsiya va bilimga asoslangan modeli bo‘lib, unda: ilmiy-texnik rivojlanish iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Intellektual resurslar — kapitalning asosiy turi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Innovatsion jarayonlarning uzluksizligi – texnologiyalar va yangi g‘oyalar iqtisodiy faoliyatda doimiy qo‘llaniladi” [1, -pp.51].

Bu yerda asosiy e‘tibor innovatsion iqtisodiyotda asosiy ahamiyatga bog‘liq hisoblanadi. Bular: yangi mahsulotlar va xizmatlar orqali bozorni kengaytirish; ishlab chiqarish va samaradorlikni oshirish; raqobatbardoshlikni ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish; iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash masalalari ilgari suriladi.

Qurilish korxonasining iqtisodiy o‘shishga innovatsiyalar orqali bir necha yo‘llar bilan ta‘sir ko‘rsatadi: “qurilish materiallari korxonasining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosan yangi texnologiyalar va jarayonlar xarajatlarni qisqartirishga va resurslardan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi; qurilish materiallari korxonasining qurilish bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda yangi mahsulotlar va xizmatlar orqali qurilish bozor ulushini oshiradi va innovatsion qimmat yaratadi; yangi ish o‘rinlarini va ijtimoiy samaralarni yaratishda innovatsiyalar asosida yangi biznes hamda ishlab chiqarish sohalari paydo bo‘ladi; maqsadli iqtisodiy o‘shish innovatsiyalar milliy iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishi va barqaror o‘shishini ta‘minlaydi” [3, -pp.65].

Iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalari jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va inson omilining roli o‘zgarishi bilan birga rivojlanib borgan. Boshqaruv nazariyalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda tashkilot va davlat darajasida qarorlar qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Tarixiy jihatdan boshqaruv nazariyalari quyidagi asosiy bosqichlar orqali rivojlangan: klassik boshqaruv nazariyalari; neoklassik va bixevioristik yondashuvlar; institutsional va neoinstitutsional nazariyalar.

Klassik boshqaruv nazariyalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sanoat inqilobi ta‘sirida vujudga kelgan. Ushbu nazariyalar asosan ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish va qat‘iy boshqaruv iyerarxiyasini shakllantirishga qaratilgan [8, -pp.12].

Klassik boshqaruv nazariyalarining asosiy yo‘nalishlari:

A) Frederik Teylor ilmiy boshqaruv nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha: mehnat jarayoni ilmiy tahlil qilinishi lozim; har bir ish uchun eng samarali usul aniqlanishi kerak; ishchilar mehnati qat‘iy nazorat ostida bo‘lishi zarur; mehnat va boshqaruv funksiyalari ajratilishi lozim. Bu yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan bo‘lsa-da, inson omilini yetarlicha hisobga olmagan.

B) Ma'muriy boshqaruv nazariyasi asoschisi Anri Fayol boshqaruvni universal jarayon sifatida talqin qilib, uning 5 ta asosiy funksiyasini ajratgan: rejalashtirish; tashkil etish; rahbarlik qilish; muvofiqlashtirish; nazorat. Shuningdek, u boshqaruvning 14 ta prinsipini ishlab chiqqan (mehnat taqsimoti, intizom, markazlashuv va boshqalar).

V) Byurokratik boshqaruv nazariyasini asoschisi Maks Veber samarali boshqaruvning asosi sifatida: qat'iy qoidalar; rasmiy vakolatlar; lavozimiy iyerarxiya; shaxsiy emas, rasmiy munosabatlarni ko'rsatib o'tgan [9, -pp.42].

Elton Meyo rahbarligida o'tkazilgan Xotorn tajribalari shuni ko'rsatdiki: mehnat unumdorligi faqat moddiy omillarga bog'liq emas; ijtimoiy muhit va jamoaviy munosabatlar muhim rol o'ynaydi; ishchilarni ruhiy qo'llab-quvvatlash samaradorlikni oshiradi.

Institutsional nazariya XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, iqtisodiy tizimlarni: qonunlar; an'analari; ijtimoiy normalar; davlat institutlari orqali boshqarishni o'rganadi. Ushbu yo'nalish vakillari: Torsteyn Veblen, Djon Kommons, Uesli Mitchell. Veblen iqtisodiy qarorlarni insonning ijtimoiy xulqi bilan bog'lab izohlagan. Asosiy vakillar: Ronald Kouz – transaksiya xarajatlari nazariyasi, Duglas Nort – institutlar va iqtisodiy o'sish, Oliver Uilyamson – shartnomaviy munosabatlarni o'rgangan [5, -pp.19].

Mazkur yondashuv doirasida boshqaruvning asosiy vazifasi resurslarni optimal taqsimlash, xarajatlarni minimallashtirish hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishdan iborat bo'lgan. Biroq, raqamli transformatsiya, globallashtirish va texnologik innovatsiyalar sharoitida an'anaviy resurslar tez eskiradi, oson nusxalanadi va strategik ustunlikni uzoq muddat saqlab qolish imkonini bermaydi.

Genri Chesbro tomonidan “ochiq innovatsiyalar modeli” ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, innovatsiyani yaratish jarayonini tashkilot chegaralari bilan cheklamaslik g'oyasi asoslangan. Mazkur modelga muvofiq, korxonani tashqi bilim manbalari bilan hamkorlik qilishi innovatsion salohiyatni oshiribgina qolmasdan uni kuchaytiradi. Ochiq innovatsiya mexanizmlari quyidagilar asosida amalga oshiriladi: universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik mexanizmi; startaplar bilan kooperatsiya mexanizmi; autsorsing va kraudsorsing mexanizmi; korporativ venchur investitsiyalar mexanizmi va boshqalar.

Innovatsion loyihalarni samarali boshqarishga dinamik va noaniq bozor muhitida “Agile boshqaruv modeli” ishlab chiqilgan. Ushbu modelda qaror qabul qilish markazlashmagan bo'lib, jamoalarga yuqori darajada avtonomiya beriladi. “Agile boshqaruv modeli” quyidagi tamoyillarga asoslanadi: moslashuvchan rejalashtirish; qisqa iteratsiyalar; doimiy fikr-mulohaza; tezkor qaror qabul qilish. Agile boshqaruv modeli natijasida innovatsiya jarayon xatarlar ertaroq aniqlanadi va ularni oldindan bartaraf etish mumkin hisoblanadi.

“Lean innovatsiya modeli” cheklangan resurslar sharoitida innovatsiya yaratish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Mazkur model orqali belgilangan yondashuv asosida innovatsiya bozor ehtiyojlariga maksimal darajada moslashtiriladi. Innovatsion ekotizim konsepsiyasi innovatsiyani alohida tashkilot emas, balki o'zaro bog'langan institutlar tizimi natijasi sifatida talqin qiladi [2, -pp.27]. Ushbu yondashuv “Triple Helix” (davlat–biznes–ilm–fan) modeliga asoslanadi. Innovatsion ekotizimning samaradorligi quyidagi omillar orqali asoslanadi. Bular, institutsional muhit, moliyaviy infratuzilma, inson kapitali sifati, axborot almashinuvi darajasi bilan belgilanadi. “Triple Helix” (Davlat–Biznes–Ilm–Fan) modeli — bu zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat, biznes va ilm-fan o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va hamkorlikni targ'ib qiladigan tizimli yondashuvdir. Ushbu modelning asosiy maqsadi innovatsiya jarayonlarida muhim bo'lgan uchta sektorning (davlat, biznes, ilm-fan) o'zaro samarali integratsiyasini ta'minlashdir. “Triple Helix” modelini 1995-yilda professor Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff ishlab chiqqan. Ularning fikri innovatsion iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun davlat, biznes va ilm-fan sektorlari bir-biriga yaqinlashib, o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur deb hisoblashgan. Bunda davlat (Government) asosan regulyator sifatida iqtisodiy va innovatsion siyosatni ishlab chiqadi. Innovatsiya uchun zarur bo'lgan qonunlar va qoidalarni belgilaydi. Xalqaro va ichki bozorlarga ta'sir ko'rsatadigan strategiyalarni amalga oshiradi. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar va subsidiya mexanizmlarini taqdim etadi.

“Triple Helix” modelida har bir sektor o‘rtasida o‘zaro ta’sirlar, o‘zgarishlar va o‘zgaruvchan munosabatlar mavjud. Model quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

-uch tomonlama hamkorlik bunda eng muhim jihatlaridan biri shundaki, unda davlat, biznes va ilm-fan sektorlari bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi. Har bir sektor o‘zining strategik vazifalarini bajarishda o‘zaro hamkorlikka asoslanadi. Davlat ilmiy-texnologik rivojlanishni rag‘batlantiradi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim infratuzilma yaratadi. Biznes ilmiy izlanishlarni tijoratlashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratadi. Ilm-fan esa yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish orqali biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta‘minlaydi.

-tashqi va ichki ta’sirlar davlatning innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashi va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni yirik korxonalar va kichik bizneslarga joriy etishi orqali bozorlar o‘rtasidagi chegaralar bartaraf etiladi. Bu modelda davlat, ilm-fan va biznesning o‘zaro ta’siri shunday o‘zgaruvchan bo‘ladiki, har bir sektor boshqa ikki sektorga samarali tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ilm-fan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda biznesga yordam beradi, biznes esa ilm-fan uchun zarur resurslar va amaliy ma’lumotlarni taqdim etadi.

Agar qurilish sohasida boshqaruv tizimi samarali bo‘lmasa, uning innovatsiya jarayonidagi tavakkalchilik oshib ketadi hamda resurslar noto‘g‘ri yo‘naltiriladi va kutilgan natijaga erishilmaydi. Shuning uchun qurilish sohasidagi innovatsiyalar muvaffaqiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va tizimlilikiga bog‘liq [4, -pp.143].

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida innovatsiya korxonalar va tashkilotlarning barqaror hamda uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion faoliyat o‘z mazmuniga ko‘ra maqsadli, tizimli va boshqariladigan jarayon hisoblanib, u boshqaruv tizimi doirasida shakllanadi va amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsiya boshqaruv jarayonlaridan ajralgan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas, balki boshqaruv qarorlarining mantiqiy natijasi sifatida vujudga keladi.

MDH mamlakatlari olimlari — L.I.Abalkin, V.L.Makarov, B.A.Santo tadqiqotlarida innovatsiya jarayonining samaradorligi boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi, resurslardan oqilona foydalanish va tashkiliy mexanizmlarning samarali ishlashi bilan belgilanishi qayd etiladi. Ularning qarashlariga ko‘ra, innovatsiyani joriy etish boshqaruvning rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat funksiyalarining o‘zaro muvofiqligiga tayanadi. Shu o‘rinda, innovatsiya quyidagi bir qator xususiyatlarga tayanadi: boshqaruv subektlarining maqsadli qarorlari asosida shakllanadi; tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi; resurs ta‘minoti va institutsional muhitga bog‘liq bo‘ladi; boshqaruv tizimi samaradorligini aks ettiradi va boshqalar hisoblanadi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, qurilish korxonasini strategik boshqaruvda innovatsiya tashkilotni raqobat ustunligini shakllantiruvchi, uni saqlab qoluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. M.Porterning fikriga ko‘ra, raqobat strategiyasi nazariyalariga muvofiq, innovatsiya korxonalarga bozorda xarajatlar bo‘yicha yetakchilik yoki mahsulot va xizmatlarni differentsiatsiya qilish orqali barqaror ustunlikka erishish imkonini beradi.

Qurilish sohasi iqtisodiyotning eng murakkab va ko‘p qirrali tarmoqlaridan biri bo‘lib, uni boshqarish boshqa sohalarga nisbatan o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bu o‘ziga xosliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-qurilish mahsuloti yagona va noqonuniy xarakterga ega. Ya’ni har bir obyekt muayyan hududda, muayyan sharoitda barpo etiladi, uni boshqa joyga ko‘chirish imkoni yo‘q. Qurilish korxonasidan loyihaga individual yondashuv, mahalliy resurslar va infratuzilmani hisobga olishni talab qiladi.

-qurilish jarayoni uzoq muddatli, ko‘p bosqichli hisoblanadi. Loyihalash, moliyalashtirish, qurilish-montaj ishlari va obyektning topshirish bosqichlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash boshqaruvni asosiy vazifasi bo‘ladi.

-qurilish sohasi kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqdir. Katta miqdordagi investitsiyani jalb qilish, moliyaviy risklarni boshqarish, xarajatlarni qat’iy nazorat qilish va boshqaruv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Chemmanur, T.J., Gupta, M., & Simonyan, K. (2020). Top Management Team Quality and Innovation in Venture-Backed Private Firms and IPO Market Rewards to Innovative Activity. *Entrepreneurship Theory and Practice*.
2. Chemmanur, T.J., Loutskina, E., & Tian, X. (2014). Corporate Venture Capital, Value Creation, and Innovation. *Review of Financial Studies*, 27(8), 2434-2473.
3. Desyllas, P., & Sako, M. (2013). Profiting from business model innovation: Evidence from Pay-As-You-Drive auto insurance. *Research Policy*, 42(1), 101-116.
4. Elings, G. (2020). The relationship between R&D expenditures, patents granted and firm performance in European high-tech industries. *Radboud University*.
5. Goffin, K., & Mitchell, R. (2016). *Innovation management: effective strategy and implementation*. London: Macmillan International Higher Education.
6. Karabulut, A.T. (2015). Effects of innovation strategy on firm performance: a study conducted on manufacturing firms in Turkey. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 195, 1338-1347.
7. Martishin, E.M., Gladkaya, S.V., Yeletsky, A.N., Zotova, T.A., Yatsenko, A.B. (2023). Evolutionary Management in Managing Economic Growth and Sustainable Development. *Innovative Trends in International Business and Sustainable Management*. [https://doi.org/10.1007/978-981-19-4005-7\\_40](https://doi.org/10.1007/978-981-19-4005-7_40).
8. Orbik, Z. (2017). Próba analizy pojęcia innowacji. *Zeszyty Naukowe Politechniki Śląskiej, Seria: Organizacja i Zarządzanie*, 105, pp. 307-319.
9. Pisano, G.P. (2015). You need an innovation strategy. *Harvard business review*, 93(6), 44-54.

**UDK:330**

**O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR**

**ПЕРЕХОД К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ.**

**TRANSITION TO A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES**

**Sanaqulova Aziza** O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,  
Matematika Iqtisodiyot yo‘nalishi, 3-kurs talabasi.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekistonni “yashil” iqtisodiyotga tatbiq qilish chora tadbirlari ko‘rib chiqilgan. Respublikaning hozirgi iqtisodi tahlil qilinib unda yuzaga kelayotgan muammolar o‘zagi aniqlangan hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish, ekologiya va iqtisodiyotning bir biri bilan chambarchasligini, iqtisodiy amaliyotlarni tabiatga ta’siri o‘tkazishi va natijaviy xulosalari ko‘rib chiqildi. Davlat iqtisodiyoti hamda sanoat korxonalarini va ishlab chiqarish oqibatida mavjud bo‘ladigan ekologik ta’sirlar va tabiatning asta sekinlik bilan yo‘q bo‘lib ketishini oldini olish va qayta jonlantirish uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish hamda yashillantirish natijasida tasavvur qilmaydigan darajada butun atrofga foydalari yoritib beriladi. Qolaversa, ushbu maqolada yashil investitsiyalar borasida xorijiy mamlakatlar bilan birgalikda tajribalar o‘tkazilayotganlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Yashil” texnologiya, ekologik muammolar, “yashil” o‘sish, barqaror rivojlanish, “yashil” moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejamkorlik, energiya samaradorlik, ekologik rivojlanish, yashil investitsiya, qayta tiklanadigan energiya, “yashil” ish o‘rinlari.